Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	




Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA SOTISH BAHOLARINING TAHLILI



Nazarova Maryam Sharipovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o'qituvchisi



Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida tashkil etilgan "Afrosiyob jeans" MCHJ klasteri majmuasi tarkibi, ishlab chiqarilgan tolaning ulgurji narxi va ishlab chiqarilgan paxta momig'ining xarid narxlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan hamda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Klaster, biolaboratoriya, tola, Afrosiyob jeans, innovatsion tadbirkorlik.

Abstract: This article theoretically and practically studied and analyzed the composition of the cluster complex, the whole-sale price of the produced fiber and the purchase price of the produced cotton wool in the cluster of "Afrosiab Jeans" LLC, created in the Okdarya district of the Samarkand region.

Key words: Cluster, biolaboratory, fiber, Afrosiyob jeans, innovative entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье теоретически и практически изучены и проанализированы состав кластерного комплекса, оптовая цена производимого волокна и закупочная цена произведенной ваты в кластере ООО "Афросиаб джинс", созданного в Окдарьинском районе Самаркандской области.

Ключевые слова: Кластер, биолaborатория, воловно, Afrosiyob jeans, инновационная предпринимательства.

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish klaster tizimi bilan bog'lanmoqda. Davlatimiz rahbarining elni farovon, xalqni boy qiluvchi innovatsion g'oyalaridan biri – klaster tizimi mamlakatimizda keng joriy etilayotgan bo'lib, xususan, qishloq xo'jaligi sohasida o'zining yuksak samarasini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va sohaga innovatsion bozor mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yildi, klasterlarga ajratilgan qishloq xo'jaligi maydonlarining hajmi ekin turlari bo'yicha paxta-to'qimachilikda 67 foizni, chorvachilikda 8 foizni, meva-sabzavotchilikda 7,5 foizni tashkil etmoqda¹. Klaster

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan



usulida yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot ko'rinishida iste'molchiga yetkazib berish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligining qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasidagi asosiy yo'nalishlari qatoriga, birinchidan, eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish bo'yicha takliflar kiritish, ikkinchidan agar sektorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni jiddiy oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish, uchinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, shu jumladan, yirik rieltorlar yordamida ta'minlash orqali savdo bozorlarini va ularni to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishni kengaytirishga ko'maklashishi kabilar kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida² qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish bozor munosabatlarini joriy qilish, paxta xom ashyosini qayta ishlash hamda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarining integratsiyalashuvini kengaytirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berilgan. Bunga ko'ra paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari tashkilotchilari ularga ajratilgan imtiyozli kredit mablag'larini agrotexnologik xaritalar doirasida erkin tasarruf yetish huquqiga ega bo'lishi borasida topshiriqlar berilgan.

Qishloq xo'jaligida klasterlarni tashkil etish va uning huquqiy maqomini aniqlash istiqbolli ilmiy tadqiqot yo'nalishlardan bo'lib hisoblanadi³. "Klaster" (ing. "Cluster" kuchlarni to'plash; to'plam, markazlashtirish, guruhlash) ma'nolarini anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda "klaster" usuliga bir qator fikrlar mavjud bo'lib, ulardan M. Porter fikricha, "klaster o'z ishiga ishlab chiqarish jarayonini olishligi bilan uning qiymati belgilanadi. Bu yangi sharoitdagi fabrika bo'lib, ilmiy ishlanmalar amaliy jihatdan bir vaqtning o'zida mahsulotga aylanadi. Klasterlar bir hududda bir sohadagi ishlab chiqaruvchi tovar butligiga aloqador yetkazib beruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va tadqiqot institutlarini markazlashtiradi"⁴. Shuningdek, O. V. Ibrayevaning nuqtayi-nazariga ko'ra, "klaster ishlab chiqaruvchi va ilmiy hamjamiyat o'zaro munosabatlarini umumlashtiradi va faollashtiradi. Mintaqada innovatsion klasterning mavjudligi korxona, universitet, ilmiy-tadqiqot institutlarining turli loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini yaratadi"⁵. Sh. N. Ruzinazarovning fikricha, "klaster keng ma'noda innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib, har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yaxlit jarayonini o'z ichiga qamrab oladigan pirovard maqsad va natijaga yo'naltirilgan innovatsion faoliyat turi hisoblanadi"⁶.

Iqtisodchi olimlar Ch. Murodov, Sh. Hasanovlarning "Agroklasterlar tashkil etishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish yo'nalishlari" nomli maqolasida⁷ klaster usulidan foydalanish afzalliklari, Janubiy Koreyada bu usuldan foydalanish yo'nalishlari hamda bu yo'nalishlarni O'zbekistonda joriy qilishning ahamiyati va zarurati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

TAHLIL VA NATIJADAR

Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi "Afrosiyob jeans" MCHJ paxtachilik klasteri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 53-son qaroriga asosan tashkil etilib, 9317 ga yer maydoniga ega.

"Afrosiyob jeans" MCHJ klasterida paxta yetishtirishda tashkil etilgan xizmat ko'rsatish infratuzilma obyektlaridan: YMM tarqatish shoxobchalari – 3 ta, mineral o'g'it jamg'arish shoxobchasi – 2 ta mavjud bo'lsa, klaster tizimiga kiruvchi sanoat korxonalaridan: Paxta tozalash zavodi, ip yigiruv fabrikasi, chigitni qayta ishlash (yog'-zavodi), chigitni dorilash sexi hammasi 1 donadan mavjud (1-rasm).

qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2019-yil 11-dekabr, PQ-4549-son.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 18.03.2019. VM-230-son.


3 Силиванова К. А. Аграрное кластеризация как инструмент импортозамещения: экономика- правовой аспект // Юрист. 2016. №12. 35 с.

4 Портер М. Конкуренция –М.: Вильямс, 2005.

5 Ибраева О. В. Региональные инновационные кластеры как инструмент активизации и повышения эффективности инновационной деятельности // Вестник Академии 2013. №1. С. 44-46.

6 Ruzinazarov Sh. N. Qishloq xo'jalik tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini tizimlashtirish va takomillashtirish muammolari// Huquqiy tadqiqotlar jurnali. –Toshkent, 2018. -№1. -59-78 b.

7 Murodov Ch., Hasanov Sh. Agroklasterlar tashkil etishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish yo'nalishlari//Iqtisodiyot va moliya ilmiy-amaliy jurnal. –Toshkent, 2014. -№2 -19-b.



1-rasm: "Afrosiyob jeans" MCHJ klasteri majmuasi tarkibi⁸

Oqdaryo tumanidagi "Afrosiyob jeans" MCHJ klasteri 2023-yilda ip-yigiruv fabrikasi, 2024-yilda Chorvachilik kompleksi tashkil etishni rejalashtirgan.

Prezidentimizning tashabbusi bilan joriy etilgan klaster usuli paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda muhim o'rin egalladi. Bu tizim paxta yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulotni ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Tajriba 2022-yilda mamlakatimiz bo'yicha 164 ming gektar maydonda tashkil etildi. Hosildorlik joylardagi fermer xo'jaliklari bilan taqqoslaganda 5-10 sentnerga yuqori bo'ldi. Shuningdek, tashkil etilgan 41 korxonada 23 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

1-jadval: "Afrosiyob jeans" MCHJ da ishlab chiqarilgan tolaning ulgurji narxi⁹, (ming so'm/tonna)

Tola		Tipi		
Navi	sinfi	4(37-36)	5(35)	5(34)
		Xarid narxi	Xarid narxi	Xarid narxi
1	Oliy	12495	12326	12166
	Yaxshi	12375	12208	12050
	O'rta	11900	11739	11587
	Oddiy	11483	11328	11181
	Iflos	11007	10858	10718
2	Oliy	12138	11974	11818
	Yaxshi	11781	11621	11471
	O'rta	11364	11211	11065
	Oddiy	10947	10800	10660
	Iflos	10472	10330	10196
3	Oliy	11781	11621	11471
	Yaxshi	11483	11328	11181
	O'rta	11067	10917	10775
	Oddiy	10531	10389	10254
	Iflos	9996	9861	9733
4	Oliy	11304	11152	11007
	Yaxshi	10115	9978	9848
	O'rta	9519	9391	9269
	Oddiy	8925	8804	8690
	Iflos	8330	8217	8110

⁸ "Afrosiyob jeans" MCHJ 2022-yil hisobot ma'lumotlari

⁹ O'sha joyda



5	Oliy	8925	8804	8690
	yaxshi	7734	7630	7531
	o'rta	6545	6456	6372
	oddiy	5949	5869	5793
	iflos	5355	5282	5214

1-jadval ma'lumotlariga qaraganda, "Afrosiyob jeans" MChJ da paxta xom ashyosini qayta ishlashdan olingan tolaning 3 ta tip 4(37-36), 5(35), 5(34) larida 5 ta nav bo'yicha oliy, yaxshi, o'rta, oddiy va iflos sifatleri bo'yicha ulgurji narxleri keltirilgan bo'lib eng yuqori tola narxi 4(37-36) tipidagi 1 navning oliy sifatli tola narxi 12495 ming so'mni tashkil etgan. Eng past narxni esa 5(34) tipdagi 5-navning iflos sifatli tola 5214 ming so'mni tashkil etgan.

Joriy yilda klasterda to'qimachilik sohasini tashkil etish uchun 123,1 million dollarlik investitsiya yo'naltirilmoqda. Ushbu mablag' yevaziga mavjud quvvatlar modernizatsiya qilinib, qo'shimcha ravishda yigiruv, to'quv hamda tikuv-trikotaj liniyalari o'rnatiladi.

Amalga oshirilayotgan bu islohotlar jahon standartlari darajasidagi innovatsiya bilan boyitilayotgani ahamiyatlidir. Bir so'z bilan aytganda, klaster tizimining har bir bosqichida dunyoning eng ilg'or innovation texnologiyalari joriy etiladi.

2-jadval: "Afrosiyob jeans" MCHJ da ishlab chiqarilgan paxta momig'ining xarid narxleri¹⁰ (ming so'm/tonna)

Tip	Nav	Sinfi	Xarid narxi
A	1	Oliy	3698
		O'rta	3216
		Iflos	2736
	2	Oliy	3146
		O'rta	2662
		Iflos	2181
B	1	Oliy	3104
		O'rta	2625
		Iflos	2144
	2	Oliy	2594
		O'rta	2105
		Iflos	1627

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, "Afrosiyob jeans" MCHJ da ishlab chiqarilgan paxta momig'i xarid narxi 2 ta tip, 2 ta nav, 3 ta sinf bilan baholangan. Eng yuqori xarid narxi A tipdagi 1 navli oliy singa oid paxta momig'ida 3698 ming so'm miqdorida kuzatilgan. Eng past ko'rsatkich esa B tipdagi 2 navning iflos sinfida 1627 ming so'm qiymatida kuzatilgan.

Olib borilgan o'rganishlar davomida bir qator ilmiy xulosalar qilindi:

1. Paxta-to'qimachilik klasteri nafaqat yengil sanoatni, balki o'z yo'lida qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish kabi o'nlab tarmoqlarni ham qamrab oladi. Bu hozirga qadar qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotiga ulkan xazinalar yaratib berishi mumkin bo'lgan holda kam rentabelli bo'lib qolayotgan tarmoq klaster tizimi kirib kelgach yuqori daromadli sohaga aylanishi kutilmoqda.
2. Mamlakatimizda klasterining yaratilishi quyidagi maqsadlarga qaratilgan edi:
 - tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish va davlatning qishloq xo'jaligidagi ishtirokini kamaytirish.
 - agrosanoat kompleksini innovatsion usulda rivojlantirishning integratsiyalashgan klaster tizimini yaratish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish;
 - paxta xom ashyosini yetishtirishga samarali usullarni joriy etish va qishloq xo'jalik xom ashyosini chuqur qayta ishlashni tashkil etish.

¹⁰ "Afrosiyob jeans" MChJ 2022-yil hisobot ma'lumotlari



3. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini amalga oshirish uchun huquqiy asoslari tizimi ishlab chiqilgan.
4. Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini klaster tizimini tashkil etishda fermer xo'jaliklari mustaqilligi saqlangan holda ularni korporativ boshqaruv subyekti sifatida klaster tizimiga kiritilishi kerak. Chunki, fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.
5. 2022-yil ma'lumotlarini mazkur modelda hisoblab ko'rsak, qishloq xo'jaligi klasteri tuman iqtisodiyotiga 260103,3 mln. so'mdan ortiq hissa qo'shadi yoki tumanda ishlab chiqarilgan mahsulotning qariyb 11,4 foizini (2022 tuman tuman hududiy mahsuloti qiymati 2271,4 mlrd. so'mni tashkil etgan¹¹) tashkil yetadi. Modelda o'lchanadigan uchta segmentdan eng yuqori qismini sanoat ishlab chiqarishi 63,9 foizini teng bo'lgan mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoq tomonidan amalga oshiriladi, undan keyin qishloq xo'jaligining ulushi 26,4 foiz miqdorida mahsulot ishlab chiqarish tarmog'iga to'g'ri keladi (bu tumanda 2022-yilda 70221,7 mln. so'm), umumiy iqtisodiyotga qo'shimcha samara 9,7 foizdan kam bo'lmaydi. Bizda qishloq xo'jaligida paxtachilikning qiymati ma'lum, shundan tuman iqtisodiyotiga 260103,3 mln. so'mdan ortiq hissa qo'shishi mumkinligi hisoblab topiladi. Bu 2022-yildagi tuman paxtachiligidan 3,8-marta ko'p demakdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Qishloq xo'jaligi, xususan, paxtachilikda klaster tizimini yoppasiga joriy etish va korporativ boshqaruvdagi barcha subyektlarning o'zaro teng manfaatlari saqlab qolinishi kerak;
- Klaster tizimida mehnat qiluvchi tomonlar haq-huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- Paxtachilik tizimiga klasterlar ko'magida "Aqlli qishloq xo'jaligi" standartlarini joriy etish zarur;
- Paxtachilikda resurs tejankor, xususan, suv tejankor texnologiyalarni joriy etilishini jadallashtirish kerak;
- Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi past samarali bo'lgani bois, klaster tizimida daromadlarni qayta taqsimlashda tarmoq xususiyatini inobatga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 www.prezident.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 18.03.2019. VM230
3. Портер М. Конкуренция –М.: Вильямс, 2005
4. Ибраева О. В. Региональные инновационные кластеры как инструмент активизации и повншения эффективности инновационной деятельности // Вестник Академии 2013. –№1. С. 44-46.
5. Murodov Ch., Hasanov Sh. Agroklastlarlar tashkil etishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish yo'nalishlari//Iqtisodiyot va moliya ilmiy-amaliy jurnal. –Toshkent, 2014. -№2 -19-b.
6. Alikulov, A. I. (2010). Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya." Fan va texnologiya", -Toshkent, 196.
7. Alikulov, A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 75-76.
8. Ulugbek, T. E., & Abdumumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
9. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). Agroklastlarlar sotish jarayonlarida segmentar hisobotlarning ahamiyati. Научный Фокус, 1(7), 790-795.
10. Eshmuradov, U. (2014). The methodology of the primary account sales of agriculture products. In Construcții identitare. Reverberații ale modelului cultural francez în context european și universal. (Vol. 2, pp. 113-118).
11. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). Evaluation and accounting of material working cash in agrocusters as an object of accounting. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 102-109.
12. Khasanov, B. A., Eshboev, U. T., Hasanova, R. B., Mukumov, Z. A., Alikulov, A. I., & Djumanova, A. B. (2019). Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. International Journal of Advanced Science and Technology, 28(14), 42-48.
13. Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2023). Состояние и тенденции развития сельского хозяйства в узбекистане. Научный Фокус, 1(7), 681-686.
14. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.

11 Oqdaryo tumanining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. 2022-yil yanvar-dekabr.–Samarqand, 2022.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.